

SOVET DAVRIDA ANGREN SHAHARINING SANOATLASHUVI AHOLI ETNIK TARKIBIGA TA'SIRI.

Sulaymanov Xolbek Safarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Amaliy etnologiya laboratoriyasi katta ilmiy xodimi,

mustaqil izlanuvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17317545>

Annotatsiya: Sovet davrida mamlakatimizning tabiiy boyliklarni o'zlashtirish maqsadida juda ko'plab geologik qidiruv ishlari amalga oshirildi. O'tgan asrning 30-yillariga kelib, geologlar Toshkent vohasining Ohangaron havzasida Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'mir konlarini aniqlashdilar.

Sobiq Ittifoq hukumati buyrug'i bilan bu hududda geologlar, konchilar uchun turar joylar barpo qilinadi. Ishchilar oqimining ortib borishi natijasida aholining soni ham o'sib boradi. 1959-1989 yillardagi aholini ro'yhatga olish ma'lumotlariga ko'ra Angren shahrida mahalliy aholiga nisbatan bo'shqa millat vakillarini soni ko'pchilikni tashkil etgan.

Ushbu xolat Toshkent vohasining sanoat rivojlangan Chirchiq, Olmaliq, Bekobod shaharlarida ham kuzatiladi. Buning asosiy sabablaridan biri sobiq Ittifoq davrida Markaziy hukumat strategik ahamiyatidagi hududlarga ko'proq rus millatiga mansub aholini joylashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ko'chirib kelgan xalqlarni ishlashtirish natijasida aholining etnik tarkibiga ta'sir etgan.

Kalit so'zlar: Angren shahari, ko'mir koni, sanoat, millatlar, etnik tarkib, aholini ro'yhatga olish, koreyslar, nemislar, yaponlar, deportatsiya.

Kirish: Sovet hukumati tomonidan o'lkani tabiiy boyliklarni aniqlash va ularni o'zlashtirish yuzasidan olib borgan qidiruv ishlari o'z samarasini berdi.

O'tgan asrning 20 yillarining oxiriga kelib, geologlar tomonidan Toshkent vohasining Ohangaron havzasida qidiruv ishlari amalga oshiriladi. 1933 yili geolog Grigoriy Chikrizov tomonidan Jigariston qishlog'ida yirik ko'mir koni mavjud degan dastlabki ilmiy xulosalarini hukumatga taqdim etadi. Buning natijasida sobiq Ittifoq hukumati geologlar, konchilarni ushbu hududni o'rganish va ko'mir konini ochish uchun yuboradi.

Shundan so'ng Sobiq Ittifoq hukumati 1940 yilga kelib, Ohangaron tumanida ko'mir qazib oluvchi korxonalar tashkil etish to'g'risida qarori qabul qilinadi. Ohangaron (Angren) daryosining chap qirg'og'ida 1941 yili ochiq ko'mir konida qurilish ishlari boshlandi va 1942 yilga kelib ishga tushiriladi[1.484].

Ko'mir koni ishga tushganidan keyin Angren hududida bir nechta aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Jumladan 1940 yilda 300 ga yaqin aholi istiqomat qiladigan bir qator binolar Jigiriston qishlog'ida qurildi[2.484].

1941-yil 2-mayda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Farmon chiqardi. Mazkur farmonga ko'ra: "Angrenshaxtqurilish" aksiyadorlik jamiyatida qurilayotgan aholi manzili ishchilar qo'rg'oni toifasiga kiritilib, "Angrenshaxtqurilish" ishchilar qo'rg'oni deb o'zgartiriladi. Markazi Teshik-Tosh qishlog'ida joylashgan "Angrenshaxtqurilish" qoshida qishloq kengashi tuzilsin va I.R. Ikromov qishloq kengashining birinchi raisi etib saylansin deb belgilanadi[3].

1946 yilda esa "Angrenshaxtqurilish" aholi manzili shahar maqomiga ko'tarilib, Angren nomini oldi; boshqa ishchi manzillar ham shu nom ostida birlashtirildi[4].

Shaharning asosiy qismi dastlab ko'mir koni ustida qurilgani bois uni bo'shqa joyga ko'chirishga to'g'ri keladi. Shu sababdan oldingi joyidan 7-8 km uzoqlikda ya'ni Dukantsoy bilan Qorabovsoy va Toshkent-Qo'qon yo'li yoqasida ko'mir yo'q joyda barpo qilishadi.

Angren shaharining bosh rejasi A.Zotov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u 1954 yilda tasdiqlanadi. Bosh rejaga muvofiq shahar 85 ming kishi istiqomat qilishga mo'jallangan edi.

Angren shahrining sanoati rivojlanishi natijasida hududdagi aholining etnik tarkibida ham o'zgarishlar seziladi. Jumladan 1959 yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, shahar aholisining 42,9 foizini ruslar, 17,9 foizini tatarlar, 15,7 foizini o'zbeklar, 7,4 foizini tojiklar va 3,7 foizini ukrainlar tashkil etgan[5]. 1989 yilga kelib o'zbeklar aholining uchdan bir qismini, ruslar uchdan bir qismini, tojiklar 13,1 foizni va tatarlar 8,3 foizini tashkil qilgan[6]. Bundan tashqari O'zbek millatining urug'laridan bo'lgan quramalar hamda Farg'ona vodiysidan ko'chib kelgan aholi ham ko'pchilikni tashkil etgan.

Angren shahrida ikkita tojik qishlog'i ham bo'lib, aholisining asosiy qismi sovet davrida ko'chib kelgan. Angren shahrida ta'lim tojik tilida olib boriladigan ikkita maktab – 17-sonli maktab (u butunlay tojik tilida) va 10-sonli maktab (o'zbek tili aralash tilda) mavjud.

Shaharda ko'chirib keltirilgan xalqlar vakillari ham yashagan, jumladan Qrim-tatarlar, Uzoq Sharqdan deportatsiya qilingan koreyslar, Angren shahri markazi hamda Yangiobod, Dukent qishlog'ida yashab ishlagan nemislar va bo'shqa millat vakillari kabi. Ular shahar aholisining etnik tarkibiga ta'sir etgan.

Xalq Komissarlari Kengashi va Butunittifoq Kommunistik partiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qo'mitasining 1937 yil 21 avgustdagi Stalin va Molotov tomonidan imzolangan "Koreys aholisini Uzoq Sharq o'lkasining chegaradosh tumanlaridan ko'chirish to'g'risida"gi qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekistonga surgun qilingan koreyslar Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi, Amudaryoning quyi oqimi va Orol dengizi sohillaridagi o'zlashtirilmagan yerlarga joylashtirildi. O'sha vaqtda Toshkent viloyatida 27 ta koreys jamoa xo'jaligi mavjud edi[7].

Ikkinchi jahon urushidan keyin deportatsiya qilingan nemislarning bir qismi O'zbekistonga tabiiy boyliklarni qazib olish va sanoat ob'yektlarini qurish uchun jo'natildi. Toshkent, Angren, Chirchiq, Ohangaron, Bekobod, G'azalkent, Muborak, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Buxoro va Navoiy, ya'ni O'zbekistonning eng rivojlangan viloyatlarida nemislar mehnat resurslarining salmoqli qismini tashkil etgan.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekistonda nemislar soni nafaqat migratsiya, balki tug'ilishning ko'pligi tufayli ham tez o'sib bordi. 1959-1970 yillarda respublikaning nemis aholisi ikki baravar ko'paydi. Nemislar O'zbekistonda nafaqat sanoatga, balki fan va madaniyatga ham katta hissa qo'shgan. 1972-yilda esa yashash joyini tanlashdagi cheklovlar bekor qilinishi natijasida nemislar Markaziy Osiyodan Rossiya va Germaniyaga keta boshladilar. 1990-yillarda SSSR parchalanganidan keyin bu jarayon kuchayib bordi[8].

Shuningdek shahar qurilish ishlarida yapon harbiy asirlari ham ishlagan. Ular SSSRning turli hududlariga, jumladan, Sovet O'zbekistoniga yuborilib, u yerda turar-joy binolari, ma'muriy binolar, zavodlar, yo'llar qurishda ishladilar[9]. 1951 yilgacha bu yerda qolgan yapon askarlari xotirasiga Angren shahri markazida yodgorlik lavhasi o'rnatilgan.

1980-yillarning oxiriga kelib Angren jadal rivojlanayotgan sanoat markazi bo'lib, unda 29 dan ortiq yirik sanoat korxonalari, o'nlab nisbatan kichikroq korxonalar bor edi. Butun sanoat tarmoqlari: rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, mashinasozlik va metallga ishlov berish, sellyuloza-qog'oz, yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari

barpo etildi. 1986 yilda Angren shahriga tutash Appartak qishlog'ida ikkinchi ochiq ko'mir koni ishga tushirildi. Shaharning sharqida esa Ohangaron daryosining suv oqimini mavsumiy tartibga solish uchun 8,5 kilometr uzunlikdagi suv ombori qurildi. U 1989 yilda to'ldirilgan. 1960-yillarda Angren issiqlik elektr stansiyasi (qo'ng'ir ko'mirda ishlaydi) nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi elektr stansiyasi qurildi. 1976 yilda ancha kuchliroq Yangi-Angren issiqlik elektr stansiyasi qurilishi boshlandi[10].

Aynan shu davrlarda sobiq ittifoq mamlakatlaridan Angren shahriga ishlash maqsadida kelganlar soni ortib boradi va ularning ko'p qismi yashab qolib ketadilar, lekin 1985-1990 yillarda sobiq Ittifoq hukumatining qayta qurish siyosati o'zini oqlamaganidan so'ng, Resublikadagi inqiroz Angren shahariga ham ta'sir etdi. Ko'plab sanoat korxonalari to'xtab qoldi. Iqtisodiy-ijtimoiy chuqur inqirozlar bu erdagi aholini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Natijada 1990 yillardan boshlab shahardagi turli millat vakillari etnik vatanlariga ko'chib ketish xolatlari kuzatiladi.

Bugungi kunga kelib, Angren shahri Toshkent viloyatining sanoati rivojlangan hududiga kiradi. Xorijiy qo'shma korxonalarning ko'plab qurilishi, turizmni rivojlanib borishi natijasida ko'plab sayyohlarni ushbu hududga qiziqishi ortib bormoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki O'zbek xalqining bag'rikengligi va mehmondo'stligi sabab azal-azaldan turfa xalqlarni mamlakatimizda yashashiga asosiy omil hisoblangan. Buning natijasida boshqa millat vakillari ham O'zbekistonni o'z ona yurti deb hisoblaydilar. Garchi turli sabab va omillar tufayli yurtimizni tark etgan bo'shqa millat vakillari o'zlari yashab ketgan shahar va qishloqlarini hozirgi kunda ham so'g'inib izlab kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. b.-484
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. b.-484
3. "O'zbekko'mir" gazetasining 2023 yil 29 aprel kunidagi №9(69)-sonidan olindi.
4. "O'zbekko'mir" gazetasining 2023 yil 29 aprel kunidagi №9(69)-sonidan olindi.
5. 1959 yildagi Butunittifoq aholi ro'yxati. SSSR respublikalari aholisining etnik tarkibi.<https://www.demoscope.ru>
6. 1989 yildagi Butunittifoq aholi ro'yxati. SSSR respublikalari aholisining etnik tarkibi.<https://www.demoscope.ru>
7. Этнический атлас Узбекистана. Т.2002.С.130-136
8. Этнический атлас Узбекистана. Т.2002.С.169
9. СССРdagi axloq tuzatish mehnat lagerlari tizimi, 1923-1960 yillar: ma'lumotnoma / M. B. Smirnov tuzgan; N. G. Oxotin, A. B. Roginskiy tomonidan tahrirlangan. Moskva, 1998 yil.
10. [http:// angrenmuzey.uz/](http://angrenmuzey.uz/)